


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**FORMATION OF ECONOMIC TERMS IN PERSIAN****Muhabbat Habibova***Senior lecturer**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: communication system, State language, office work, documentation and terminology, terminological system, various issues of terminology, comprehensive research, current issues, new era, international terms, acquisitions from English, French

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: This article discusses the formation and development of economic terms in the Persian language until the beginning of the twentieth century, which has become a system of well-regulated terms used in public speaking or written sources, today's requirements.

HOZIRGI FORS TILIDA IQTISODIY ATAMALARNING YASALISHI**Muhabbat Habibova***katta o'qituvchi**TDSHU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: kommunikatsiya tizimi, Davlat tili, ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik, terminologik tizim, terminologiyaning xilma-xil masalalari, atroflicha tadqiq qilish, dolzarb masalalar, yangi davr, baynalmilal atamalar, ingliz, fransuz tilidan o'zlashmalar, YaA lar

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors tilidagi iqtisodiy atamalarining yasalishi, XX asr boshlarigacha bo'lgan shakllanish va rivojlanishi va hozirgi kunda ishlatilishi, muayyan bir tizim holiga kelgan, biror aniq tartibga tushirilgan atamalar, xalq nutqida yoki yozma manbalarda qo'llanib kelingan va ulardan foydalanilganligi, bugungi kun talablari haqida fikr yuritiladi.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В СОВРЕМЕННОМ ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ**Муhabбат Хабибова***Старший преподаватель**ТГУВ**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: система связи, государственный язык, делопроизводство, документация и терминология, терминологическая система, различные вопросы терминологии, комплексное исследование, актуальные проблемы, новая эра, международные термины, заимствованные термины из английского, французского языка

Аннотация: В этой статье обсуждается формирование и развитие экономических терминов в персидском языке до начала двадцатого века, которая стала системой, хорошо регламентированных терминов используемым в публичных выступлениях или письменных источниках, сегодняшних требований.

KIRISH

Hozirgi kunda tilshunoslik sohasida terminologiya muammolarini tadqiq qilishga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Buning sababi ilmiy-texnika rivoji davrida yangidan - yangi narsa va tushunchalarning paydo bo'layotganligi, hamda ularni atashga bo'lgan extiyojning ortib borishidadir. Shu bois terminologik sistemalarning shakllanish va taraqqiyot yo'llarini aniqlamasdan va o'rganmasdan turib, tilning rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri tushunib olish qiyin. Iqtisodiy atamalarining bugungi kunda amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, so'zlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish, davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq yetish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

ASOSIY QISM

Fors tilining lug'at tarkibida ham XX asrdan boshlab yangi so'zlar, eski so'zlarning yangi ma'no belgilari, kirib kelayotgan yangi o'zlashmalar ko'payib bormoqda. Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, atamalar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun fors tilidagi turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq yetish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Ona tilimiz Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda o'zbek tilshunosligi oldida ham yangidan-yangi vazifalar yuzaga keldi. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida fors tiliga ingliz, fransuz tillaridan so'z va atamalar kirib kela boshladi. Fors tili leksikasidagi bunday o'zgarishlar mamlakat hayotida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Asrlar mobaynida arab- fransuz tillaridan o'zlashmalar fors tili leksikasining boyishida o'z o'rnini egallab kelgan bo'lsa, qayd etilgan davrdan boshlab bu rolni ingliz tili o'ynay boshladi. Tabiiyki, o'z-o'zidan fors tili leksikasi ingliz, fransuz tillari orqali qabul qilingan atamalar hisobiga ko'paya bordi. Ingliz tilining fors tili leksikasi taraqqiyotiga ta'siri bu tildan faqat so'zlar olishdangina emas, lug'at boyligining oshishiga, so'z yasashning ayrim jihatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Davr taqozosi bilan fors tiliga

iqtisodiyot atamaları ham o'zlashtirila boshlandi. Chunonchi, o'sha davr matbuotida qo'llanilgan iqtisodiyotga oid ba'zi atamalar hozirgi fors tilida ham qo'llanilmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, fors tili iqtisodiyot atamalarining XX asr boshlarigacha bo'lgan shakllanish va rivojlanishi muayyan bir tizim holiga kelgan, biror aniq tartibga tushirilgan atamalar bo'lmasa-da, xalq nutqida yoki yozma manbalarda qo'llanib kelingan va ulardan foydalanilgan. Bunday atamalardan ayrimlari hozirgacha yashab kelayotganligi forslar, tojiklar, arablar, o'zbek hamda boshqa turkiy xalqlarning iqtisodiy-madaniy aloqalari vositasida og'zaki hamda yozma tilning uzoq va murakkab rivojlanish mahsulidir.

Hozirgi davr, iqtisodiyot terminologiyasining muayyan taraqqiyot va takomillashuvi bosqichi bo'lib qoldi. Fors iqtisodiyoti terminologiyasi muayyan taraqqiyot va takomillashuv yo'lini bosib o'tayotgan bo'lishiga qaramay, hal qilinishi muhim bo'lgan masalalar ham bor. Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, fors iqtisodiyot terminologiyasi ikki manba: fors tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar asosida rivojlanib va boyib kelgan. Bu manbaning birinchisi asli forsha bo'lib, fors tilida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan atamalar hisoblanadi. Ikkinchisi esa, o'zga tillar, aniqrog'i, ingliz, fransuz, arab, rus va boshqa tillardan o'zlashtirilgan atamalardir.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, hozirgi o'zbek tili iqtisodiy atamalar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojik, arab, shuningdek, rus-baynalmilal atamaları ham qo'llanilib kelinmoqda. Masalan, sarmoya, savdogar, tojir, sarkor, daromad, dastmoya, kabi fors-tojik so'zlari asosiy iqtisodiy atamalar bo'lib qo'llanilmoqda.

Eron iqtisodiyotida qo'llaniladigan atamalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumiste'mol iqtisodiy so'zlar.
2. Iqtisodiy terminlar.

Umumiste'mol iqtisodiy so'zlarga bozor - بازار, pul - پول, qarz - قرض, boylik - ثروت, savdo - تجارت va shu kabi hamma tushunarli bo'lgan so'zlar kiradi. Chunki bu atamalarni hamma insonlar ishlatishi mumkin. Bu so'zlardan foydalanishda mutahassis bo'lish shart emas. Iqtisodiy terminlar esa umumiste'moldagi so'zlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Iqtisodiy termin o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki xususiyatiga va vazifasiga ko'ra kashf etiladi. Iqtisodiy terminning ma'nosi bitta bo'ladi. So'z esa bir necha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Fors tilining iqtisodiy terminlari iqtisodiyotning turli sohalariga ham bog'liqdir. Ularni ixtisosliklardan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bank ishi: milliy valyuta, so'm, qiymat, narx, talon, kupon, jamg'arma, xazina, qog'oz pul, banknot, veksel, chek, kredit kartochkalari, pul oboroti, pul massasi, pul agregati, bank, pul tizimi, metallik nazariyasi, miqdoriylik nazariyasi, pul

muomalasi, inflyatsiya, kredit, tijorat krediti, bank krediti, davlat krediti, xalqaro kredit, kreditning chegaralari, lizing, hisobli kredit, lombardli kredit, lizing operatsiyalari, lizing shartnomasi, kredit mexanizmi, kredit yig'indisi, foiz stavkasi, kredit xavf-xatari, aktiv, passiv, foiz marjasi, yeksportli kredit, muammoli ssuda va boshqalar.

2. Soliq va soliqqa tortish: soliq ob'ekti, soliq sub'ekti, soliq manbalari, soliq normasi, soliq birligi, soliq stavkasi, soliq deklaratsiyasi, soliq siyosati, soliq mexanizmi, soliq tizimi, to'g'ri soliq, egri soliq, bojxona boji, davlat boji, ijara xaqqi, to'lov, yig'im, daromad solig'i, foyda solig'i, avans to'lovlari, foyda, yalpi foyda, korxonalar daromadi, soliq to'lovchi, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz, aksiz solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i, aholi solig'i, soliq idorasi, soliq qo'mitasi, soliq qonunchiligi va h.k.

3. Moliya: moliya funksiyasi, moliya siyosati, moliya nazariyasi, moliyaviy nazorat, moliyaviy resurs, moliyaviy munosabat, iqtisodiy munosabat, mulkiy munosabat, davlat byudjeti, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya fondi, ish haqi fondi, rag'batlantirish fondi, taqsimlash, tartibga solish, pensiya fondi, bandlik

Ayniqsa, bugungi kunda jadallik bilan odimlayotgan fan - texnika rivojida, xususan, iqtisodga oid yangi termin va o'zlashmalar soni ko'payib boryapti. Fan va texnika va iqtisodning rivojlanishi shu sohalarga oid yangidan yangi atamalarning yasashiga olib keladi. H.F.Tda atamashunoslikning o'rganilishi va tartibga keltirilishi nafaqat amaliy balki nazariy ahamiyatga egadir. Turli terminologik aspektlar mashhur olimlar Rubinchik va L.S. Peysikovning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Hozirgi fors tili lug'at tarkibining asosiy boyish usullaridan biri affiksatsiya usuli bulib, unda 80 ta so'z yasovchi affiks ishtirok etishi ma'lum. So'z yasovchi affiks, yangi so'z H.F.T da biror bir predmet, soha, jarayonni atash uchun atama yasaydi.H.F.T.da atama yasash uchun sermahsul bo'lgan bir qator affikslar mavjud. Shuni aytish kerakki, affiksatsiya usuli bilan lekin affikslarning so'z yasash asosan doimiy jarayon bo'lsa ham tarkibi va miqdori o'zgaruvchan bo'lgan. Ba'zi bir affikslar hozirgi davrda mahsulsiz affikslarga aylangan, yangi affikslar vujudga kelgan, biri ikkinchisi bilan almashtirilgan, ba'zi affikslar o'zak bilan chatishib ketgan, affikslar allomorflari, ommonimlari rivojlangan, affiksal bloklar va yarim affikslar bloki ko'paygan.

Affiksatsiya usuli 2 xil bo'lib:

Suffikslar yordamida yasash usuli - H.F.T. da mahsuldor usullardandir.

Sermahsul suffikslardan biri: ma'nosida "koneš" aksiya ma'nosida

eš bulib, افزایش "afzayeš" "o'sish", "narxning o'sishi" qiymat ma'nosidagi kabi so'zlarda uchratish mumkin.

2. gar"; "2-bān"; "ci"; "Ju-dān"; "il-āne" suffikslari

yordamida ham atamalar yasalashi biz yiqqan kartotekamiz ichida uchramadi.

3. "e-" suffiksi yordamida "dādan" fe'lining o'tgan zamon negizi "dād"+ "-e suffiksi yordamida yasalgan "dāde" investisiya atamasi uchradi.

Shuningdek, affiksatsiya usuli orqali so'z yasash eng ko'p tarqalgan usul bo'lishiga qaramay, iqtisodiy terminlar yasashida bu usul u qadar ham sermahsul emasligini guvohi bo'ldik. Yarim affikslar sodda va murakkab affikslar shakllarida bo'lib, ko'pincha fe'lining hozirgi zamon negizi, hamda ismiy so'z turkumiga xos so'zlardan iborat bo'ladi. Yarim affikslarning affikslardan farqi ular o'z lug'aviy ma'nosini aniqroq saqlab qolgan bo'ladi. «ot+h.z.f.n.» modeli o'ta qadimiy modellardan bo'lib, h.f.t.da eng sermahsul so'z yasovchi modellardan biri hisoblanadi.

M-n:

talab kiluvchi;

"hazinebār" «trebuyuşiy zatrat» xarajat qilishni

"bār" "ziyanbār" «nerentabelniy»

«ot+f.o'.z.n» modeli orqali ham ismiy YaAlar yasaladi. M-n:

"konande" کننده

"toulidkonande" – توليد کننده – ishlab chiqaruvchi;

"hamlkonande" حمل کننده ekspeditor

"şerkat konande" شرکت کننده kompanion; "

"raqobat konande" رقابت کننده konkurent, raqobatchi;

"masraf konande" مصرف کننده iste'molchi kabi terminlar yasalgan.

Suffiks tipidagi YaAli so'z morfemalar bloki.

شناس "šenās"+ "ya-ye masdari"; " saz" ساز + "ya-ye masdari" hali uchramadi.

"gir گير " " yaye masdari": umumlashtirish ya-ye masdari": "jamāvari"

(jam itog, summa) ma'nosida gozar"+sya-ye masdari" sarmoya kiritmoq ma'nosida.

"natijegiri"

"sarmāyegozari"-

بسیاری از کارخانه های امریکایی برای تبلیغات احزاب سیاسی در تلویزون سرمایه گذاری

می کنند

Ko'plab Amerika korxonalari televideniya partiyalarning tashviqot ishlari uchun sarmoya kiritmoqdalar.

siyosiy

همچنین در زمینه صنایع فولاد مس الومینیوم و روی مجتمعهای معدنی بزرگ در دست

است که در برنامه دوم روی آنها سرمایه گذاری شده است.

کار گذاری "kār gozari" - savdo tashkiloti

"ju"+ ya-ye masdari"

صرفه جوی "sarfejuyi" tejamkorlik ma'nosida

"bāzarsekani" "sekan" "sindiruvchi" ma'nosida

Suffiks tipidagi ismiy YaAlar fors tilida fe'liy YaAlarga qaraganda kamroq uchraydi.

«Ismiy YaA+ ot» modeli asosida: "näāme" - hujjat ma'nosida

M-n:

ejarename "ejarename" ejaare name ra amza کردند ijarağa olish haqida kelishuv xujjati.

Bu ikki korxonaga ijarağa olish haqidagi hujjatni imzolashdi.

"sefaresnäme" buyurtma ma'nosida

“movafeqatnäme” kelishuv, bitim ma'nosida

“tavafoqnäme” bitim ma'nosida

“emtiyaznäme” patent ma'nosida

چنان که گفته شد شرکت نفت انگلیس و ایران به تعداد خود مبنی بر پرداخت سود خالص به

ایران عمل نکرد و این موضوع و دیگر اختلافات به وجود آمده باعث شد قرارداد یا بهتر بگوییم

مریدی کتاب ایران اقتصاد 42. Hamshaxri, №11, 2002. 41] امتیاز نامه یاد شده تغییر کند

43 Hamshahri №11, 2002.]

piš "oldin, ilgari" ma'nosini bildiruvchi

pardäxt "avans" ma'nosida

در مقابل قرار شد از منافع خالص شرکت و شرکتهای تابعه و پیش پرداخت هزار لیره به

صورت نقد و هزار لیره به صورت سهم به دولت ایران پرداخت شود.

5. kam "kam, oz" ma'nolarini bildiruvchi "kam hazine "kambyudjetli"

- por "ko'p" ma'nosini bildiruvchi "por hazine "yuqori byudjetli" ma'nosida

qäbel "yaroqli" ma'nosida

مهمترین معادن سنگ آهن ایران از نظر ذخیره قابل بهره

. بر داری عبارتند از چادر ملو میلیون تن چغارت با صدو هفتاد و پنج میلیون تن

qäbel "iste'molga yaroqli" ma'nosida

qeyr-e qäbel "yaroqsiz" ma'nosida

XULOSA

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, biz to'plagan kartotekalarimiz ichidan iqtisodiy atamalarning yasalish usullarini tahlil qilganimizda, yarim affikslar bilan atama yasalish usuli mahsuldorligi bilan ajralib turdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Л.С.Пейсиков «Очерки по словообразованию персидского языка» М.,1973г.
2. А. Қуронбеков. "Форс тили лексикологияси". Т.,2009 й.16-6.
3. Ҳамшаҳри газетаси, № 10, 2002 й сони
4. Ҳамшаҳри газетаси, №11,2002 й сони
5. تهران / سیاوش مریدی کتاب ایران اقتصاد

6. De Bellaigue, Ch.(2012). Talk like an Iranian. The Atlantic.
7. Рубник.Ю.А Грамматика современного персидского литературного языка. Москва 1973
8. Ю.А.Рубник.Грамматический очерк персидского языка- 1983 Sayyid Muhammad Ziyo Husayniy(fors tilidan A.Quronbekov tarjimasini) Fors tilini chet elliklarga o‘qitish nazariyasi va yo‘riqlari.T.-2011 y.
9. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari.,- T.: «O‘qituvchi»,1983 y.
10. Ochilov. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari.,-T.: 2014y.
11. Khabibova Mukhabbat Rahmetullayevna «Simultaneous Transfer strategies and their description» Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125,Issue,4,2020
12. Khabibova Mukhabbat Rahmetullayevna «Use of multimedia methods in teaching foreign languages» Дистанционные возможности и достижения науки., Сборник научных публикаций, Киев,2020
13. Khodiyeva Nozima Tulkunovna, Khabibova Mukhabbat Rahmetullayevna, Ahmedova Dilfuza RafukjanovnaPast tense incomplete verb and present tense incomplete verb in Persian», Zenoda,may 26,2021 DOI10.5281/4810048
14. Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna, Xodiyeva Nozima Tulkunovna, Xabibova Muhabbat Rahmetullayevna «Fors tilida holat fe’llarining semantik tahlili», Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования., Москва, 2022 г.Сборник статей по материалам LVI международной научно- практической конференции. ISSN 2541- 9870
15. Khodiyeva N.T., Akhmedova D.R., Khabibova M.R.Hozirgi zamon fors tilida fel asosida tuzilgan fe’llarning struktur tahlili»,Oriental Renaissance:Innovative, Educational, naturel and social sciences» scientifie journal.volume 2/issue 4/2